

Oriental Journal of Education



THE LINGUODIDACTIC ESSENCE OF DEVELOPING STUDENTS' ORAL SPEECH COMPETENCE

Ezoza Bekmirzayevna Atamirzayeva

Senior Lecturer, PhD

Namangan State Institute of Foreign Languages

E-mail: atamirzayevaezoza@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: oral speech, speech competence, linguodidactics, communicative approach, interactive methods, communication culture.

Received: 25.05.26

Accepted: 26.05.26

Published: 27.05.26

Abstract: This article examines the linguodidactic essence of developing students' oral speech competence. The study analyzes the structural components of oral speech competence, its role in communicative activity, and the methods of its formation in the language-learning process. Special attention is paid to the importance of modern pedagogical technologies and interactive methods in enhancing students' ability to express ideas freely, participate in communication, and improve their speaking skills. The findings demonstrate that the development of oral speech competence is one of the key factors in increasing the effectiveness of language education.

TALABALARDA OG'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK MOHIYATI

E'zoza Bekmirzayevna Atamirzayeva

Katta o'qituvchi (PhD)

Namangan davlat chet tillari instituti

Email: atamirzayevaezoza@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, nutq kompetensiyasi, lingvodidaktika, kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, muloqot madaniyati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik mohiyati yoritilgan. Og'zaki nutq kompetensiyasining tarkibiy qismlari, uning kommunikativ faoliyatdagi o'rni hamda til o'qitish jarayonida shakllantirish usullari tahlil

qilingan. Shuningdek, talabalarning erkin fikr bildirish, muloqotga kirishish va nutqiy faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interaktiv metodlarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ogʻzaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish til taʼlimi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini koʻrsatadi.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ УСТНОЙ РЕЧИ У СТУДЕНТОВ

Эъзога Бекмирзаевна Атамирзаева
Старший преподаватель, PhD
Namangan State Institute of Foreign Languages
E-mail: atamirzayevaezoza@gmail.com
Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: устная речь, речевая компетенция, лингводидактика, коммуникативный подход, интерактивные методы, культура общения.

Аннотация: В данной статье рассматривается лингводидактическая сущность развития компетенции устной речи у студентов. Анализируются структурные компоненты устной речевой компетенции, её роль в коммуникативной деятельности, а также методы её формирования в процессе обучения языку. Особое внимание уделяется значению современных педагогических технологий и интерактивных методов в развитии навыков свободного выражения мыслей, участия в общении и совершенствования речевой деятельности студентов. Результаты исследования подтверждают, что развитие компетенции устной речи является одним из важнейших факторов повышения эффективности языкового образования.

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy taʼlim tizimi oldiga yangi talablarni qoʻymoqda. Bugungi kunda oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilaridan nafaqat nazariy bilimlarga ega boʻlish, balki oʻz fikrini erkin, ravon va mantiqiy ifodalash, turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot qila olish kabi kompetensiyalar ham talab etilmoqda. Shu jihatdan

talabalarda og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Og‘zaki nutq kompetensiyasi shaxsning kommunikativ faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, fikrni aniq va mazmunli ifodalash, suhbatdosh bilan samarali muloqot o‘rnatish hamda nutqiy vaziyatga mos til vositalaridan foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Mazkur kompetensiya nafaqat til o‘rganishda, balki kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy mutaxassis o‘z bilim va g‘oyalarni boshqalarga tushunarli yetkaza olishi, jamoa bilan ishlashi va professional muloqot madaniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Lingvodidaktika tilni o‘qitishning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganuvchi fan sifatida og‘zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta’lim, interaktiv metodlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Talabalarning nutqiy faolligini oshirish, ularni erkin fikrlashga undash va real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlash og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir.

So‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan kommunikativ kompetensiya, nutq faoliyati va og‘zaki muloqot masalalariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq talabalarda og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishning lingvodidaktik mohiyatini chuqur tahlil qilish, uning tarkibiy komponentlari hamda shakllantirish mexanizmlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Asosiy qism. Til kishilik jamiyatida insonlar o‘rtasida muloqotning asosiy vositasi bo‘lib, turli madaniyatlarni bog‘laydigan kuch sifatida muhim rol o‘ynaydu. Til nafaqat axborot uzatish, balki kishilarning bir-biri bilan ijtimoiy aloqada bo‘lishi, o‘zlarining fikrlarini ifodalashlari va dunyoqarashlarini shakllantirishlari uchun zarur vositadir. Shuning uchun ham tillarni o‘rganishga katta e‘tibor qaratib kelingan, til o‘qitish metodlari takomillashtirib borilgan. Hozirgi kunda nutq madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim belgisi bo‘lib, unda millat ma‘naviyati o‘z aksini topadi. Nutq madaniyati muammosining paydo bo‘lishi o‘zining dastlabki davrida ikki lingvistik maktab bilan aloqador. Bular rus tilshunosligi maktabi va Praga lingvistik maktabidir. Rus tilshunosligida nutq madaniyati sohasining ilmiy muammo sifatida asoslanishi G.O.Vinokur nomi bilan bog‘liq. G.O.Vinokur o‘z asarlarida nutq madaniyati tushunchasining mohiyati, og‘zaki nutq madaniyatiga erishishning usullari, og‘zaki muloqot kabi masalalarni tahlil qilishga urindi. Uning ta’limoticha,

“bizning nutqimiz ma’lum qoidalar asosida so‘zlanmog‘i kerak. Bunday nutq madaniy intilishlar evaziga erishiluvchi turtki choralarga muhtojdir”[1].

Og‘zaki nutq xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatsa bo‘ladi:

1. Og‘zaki nutq tezkorlik bilan (avtomatik tarzda) amalga oshadi. Tushunchalar bilan “uning libosi” bo‘lgan so‘z birgalikda “yashin tezligida” tilga kela boshlaydi. Ba’zan tushunchani ifodalovchi so‘zni o‘sha tezlikda so‘zlovchi topa olmay qoladi. Unga yaqin yoki o‘ylangan tushunchani ifodalay olmaydigan so‘zlarni ishlatib yuboradi. Natijada, aytilgan nutq (gap, gaplar) ko‘zlangan maqsadni (fikrni) to‘liq ro‘yobga chiqarmaydi. Bunda tinglovchi ham so‘zlovchi ham zarar ko‘radi.

2. Og‘zaki nutqda so‘z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi bo‘lgan fikrga monand holda tezkorlik bilan tanlanadi. Gap qurilishini, modellarini aql nazorat qilib boradi. Fikrni aytilganlarni ushlab ko‘rgan holda rivojlantirishga to‘g‘ri keladi. Agar xotira ozgina “dangasalik” qilsa, gap tuzilishi, so‘z birikmalari o‘zaro mantiqan va grammatik bog‘lanmay qoladi.

3. Og‘zaki nutq tahrir imkoniyatidan mahrum. U qanday shaklda borliqqa kelgan bo‘lsa, shundayligicha tinglovchiga havola qilinadi.

4. Og‘zaki nutqda, odatda muloqot uchun eng zarur narsalargina zuhur etiladi. Bu bir tomondan vaqt iqtisodi bilan, ikkinchidan nutqni kuchli tejash bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra unga uzundan-uzoq kirish, keng izohlar kam uchraydi. Aksincha, hodisalarning, narsalarning o‘zaro bog‘liqlik darajalari, ularning tinglovchi va so‘zlovchiga ravshanligi darajasi hisobga olinadi. Faqat zarurat his etilgandagina avvaldan ma’lum narsalarga izoh beriladi.

5. Og‘zaki nutq so‘z boyligi jihatidan yozma nutqqa nisbatan ancha kambag‘al bo‘ladi. Unda bir xil so‘zlar bir xil shakllar bir qadar ko‘proq takrorlanadi. Bu hol til vositalarini tanlash, qiyinchiliklar bilan bog‘liqdir.

6. Og‘zaki nutqda so‘zlovchining faol nutqiy harakati to‘xtam (pauza) ohang, urg‘u, turli xil imo- ishoralar fikrning tinglovchiga yetib borishida ahamiyat kasb etadi.

7. Og‘zaki nutq tilning noverbal vositalari: turli mimika va jestlar yordamida ifodalanish imkoniga ega.

Og‘zaki nutq konkret hayotiy vaziyatlarda yuz beradi va bu sharoitlar nutq xususiyatiga ta’sir etadi. Bu vaziyatlar tildan tashqari, ekstralingvistik omillar qatoriga kiradi. Aniqroq qilib aytganda, bunday omillar qatoriga nutq faoliyati sodir bo‘ladigan nutqiy vaziyat, muhit, so‘zlovchining yoshi, bilim darajasi, hayotiy tajribasi, suhbat mavzusi, suhbatdoshning nutqni idrok eta olish imkoniyatlari,

imo-ishora, mimika kabilar kiradi. Og‘zaki nutqda so‘zlovchining voqelikka munosabatlari, ichki kechinmalari, his-hayajoni kabilar ifoda etilgani bois, nutqda turli undalma, kirish va his-hayajonni ifodalovchi so‘zlar mavjud bo‘ladi.

-C'est vraiment intéressant ! (Bu juda qiziqarli!)

-Hé, ça ne va pas. Absolument pas. Je suis désolé(e). C'est impossible ! (Mutlaqo. Afsusdaman. Iloji yo‘q!)[3, 64]

Og‘zaki nutqning lingvistik vositalariga maxsus ajratiladigan leksik birliklar, murakkab bo‘lmagan grammatik tuzilmalar, ohang (melodiya, ritm, urg‘u, tembr)ni, nolisoniy vositalarga esa ekstralingvistik komponentlar - holatlar, imo-ishoralar, mimika, tabassum, kulgi va hokazolarni qo‘shish mumkin.

Og‘zaki nutqni amalga oshishida lingvistik vositalar leksika, grammatika va fonetika alohida o‘rin tutadi, ekstralingvistik vositalar esa universal xarakterga ega bo‘lib, barcha tillarda bir xil tushuniladi, shu bois chet tilida muloqot jarayonini yengillashtiradi. Quyida bu vositalar to‘g‘risida batafsil fikr yuritimiz:

Leksika - psixologik nuqtayi nazaridan murakkab bo‘lib, u og‘zaki nutqni qabul qilib tushinishda qo‘zg‘atuvchidir. Leksikani mukammal egallamay turib, nutq faoliyatining turlarini o‘rgatib, o‘rganib bo‘lmaydi. Talabalarga fransuz tilida gapirishni o‘rgatishdan avval asosiy grammatik mavzular o‘rgatiladi. Biroq, shuni unutmaslik kerakki, talabalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda grammatika asosiy maqsad qilib olinmasligi, balki gaplarni to‘g‘ri tuzishda bir vosita sifatida qo‘llanilishi va o‘rgatilishi lozim. Shuning uchun gapirish jarayonida asosiy e‘tibor nutqning aniq, ravon va so‘zlovchiga tushinarli bo‘lishi, talaffuz qoidalariga rioya etishi kabilarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Bu esa talabaning fonetik bilimlariga bevosita bog‘liqdir.

Fransuz tilshunosligi an‘analarida talaffuz “tilning ruhi” sifatida ko‘riladi. Olimlar asosan tovushlarning artikulyatsiyasi va ularning ma‘no anglatuvchi funksiyasiga e‘tibor qaratishgan. Pol Passy (Paul Passy): Xalqaro Fonetika Assotsiatsiyasi asoschisi sifatida u talaffuzni o‘rgatishda Xalqaro Fonetik Alifbo (IPA) dan foydalanishni qat‘iy yoqlagan. Uning fikricha, talaffuzni o‘rgatish — quloqni o‘rgatishdan boshlanadi. “Agar talaba tovushni eshitmasa, uni hech qachon to‘g‘ri ayta olmaydi, ” — deydi Passy[3, 86].

Zamonaviy fransuz metodisti Abri talaffuzni o‘qitishda “o‘yin” va “sezgi” elementlarini kiritishni yoqlaydi. Uning fikricha:

a)Intonatsiya birinchi o‘rinda: Tovushlardan oldin tilning musiqiyiligini his qilish kerak.

b)Korreksiya (Tuzatish): Talaffuzni darsning boshida emas, balki butun dars davomida tabiiy ravishda tuzatib borish lozim[4].

Talabalar talaffuzni mustahkamlash orqali tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishlari mumkin. Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun talab qilinadigan narsalar: Faqat tovushlarni talaffuz qila bilish emas, balki so‘zlarni bilish va ularni gap ichida qanday bog‘lash qoidalarini tushunish ham zarur.

Nutqning jarangdorligi tinglovchi uchun zarur. Buni notiq ham his etishi lozim. Ammo jarangdorlik nutq so‘zlanib turgan auditoriyaning akustik (eshitiluvchanlik) xususiyatiga bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Masalan, 15 tagacha talabasi bo‘lgan guruhda o‘qituvchi va talabalar o‘rtacha ovozda so‘zlashishlari mumkin, biroq 30 dan ortiq talabasi bo‘lgan guruhda, yoki 50 nafar talabaga ma’ruza o‘qilganda o‘qituvchi baland ovozda gapirishi talab etiladi. Talaba o‘z nutqida turli his-xayajon va kechinmalarini tinglovchiga

yetkazish uchun ifoda vositalarini to‘g‘ri qo‘llashni bilishi lozim. Aks holda nutq tushinarsiz bo‘ladi. Lingvistik vositalar qatorida ekstralingvistik vositalar ham og‘zaki nutqni amalga oshishida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ular og‘zaki nutqda aytilmay qolgan fikrlarni ifoda etish imkonini beradi.

Mimika deganda muloqot jarayonida kuzatish mumkin bo‘lgan inson yuz ifodasining barcha o‘zgarishlari tushuniladi. Yuz mimikasini o‘qish va bunga javoban o‘z his-tuyg‘ularini mimika orqali ifodalash kommunikativ jarayonda insonlar o‘rtasidagi munosabatning muhim aspektlaridan biri hisoblanadi. Mimika insonning ichki kechinmalari, hissiy holati va kommunikativ niyatini ifodalovchi noverbal vosita sifatida xizmat qiladi.

Mimika — inson yuz harakatlarining bir qismi bo‘lib, u orqali insonning o‘ylashi, hayratlanishi, qo‘rquvi, quvonchi, xotirlashi, ikkilanishi yoki noroziligi namoyon bo‘ladi. Nutq davomida yuz mushaklarining harakati kommunikativ ma’noni kuchaytiradi va tinglovchiga qo‘shimcha axborot yetkazadi. Shu sababli mimika og‘zaki nutq bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Chet tillarini o‘qitishda mimika muhim pedagogik vosita sifatida qo‘llaniladi. Ayniqsa, fransuz tilini o‘qitishda o‘qituvchining yuz ifodalari talabaga yangi so‘z yoki iboraning emotsional ma’nosini tushunishga yordam beradi. Masalan, o‘qituvchi “Je suis surpris !” (“Men hayratdaman!”) degan jumlaning aytayotganda yuzida hayrat ifodasini namoyon qilsa, talaba ushbu iboraning ma’nosini tezroq anglaydi.

— Tu es content ? (Xursandmisan?)

Bu savolni tabassum va ko‘zlarning quvonchli ifodasi bilan aytish kommunikativ ta’sirchanlikni oshiradi. Shu bois mimika nafaqat psixologik hodisa, balki og‘zaki nutq kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi ham hisoblanadi. U muloqotning tabiiyligini ta’minlaydi, hissiy ta’sirni kuchaytiradi va suhbatdoshlar o‘rtasida samarali kommunikatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Imo-ishora tushunchasi ostida insonning his-kechinmalari, umumiy ruhiy holati, reja va niyatlaridan darak beruvchi noverbal belgilar tushuniladi. Inson muloqot jarayonida nafaqat so‘zlar orqali, balki turli tana harakatlari, yuz ifodalari, qo‘l harakatlari va gavda holati orqali ham axborot uzatadi. Shu sababli imo-ishoralar kommunikativ faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Jestlar — insonning qo‘l va tana harakatlari bo‘lib, ular orqali insonning ichki holati, ma’lum bir voqea-hodisaga munosabati, hissiy kechinmalari hamda tashqi olamga yo‘nalganligi ifodalanadi. Jestlar nutqning mazmunini kuchaytiradi, emotsional ta’sirchanlikni oshiradi va suhbatdoshning fikrini tezroq anglashga yordam beradi. Ayrim holatlarda jestlar og‘zaki nutqni to‘ldiradi, ba’zan esa uning o‘rnini ham bosishi mumkin. Masalan, boshni tasdiq ma’nosida qimirlatish, qo‘l bilan salomlashish yoki yelkani qisish kabi harakatlar turli kommunikativ vaziyatlarda muhim ma’no kasb etadi.

Xulosa. Chet tillarini o‘qitish metodikasida noverbal vositalar talabalar og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Chunki tabiiy kommunikatsiya jarayonida inson faqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirish bilangina cheklanmaydi, balki o‘z fikrini mimika, jest va intonatsiya orqali ham ifodalaydi. Shu bois zamonaviy kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan chet tili darslarida verbal va noverbal vositalarni uyg‘un holda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Винокур Г.О. Заметки по русскому словообразованию. – Москва, 2001. – 200 с.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2006. – 258 b.
3. Les sons du français / Paul Passy. Les sons du français. – Paris, 2000.
4. Les 350 Exercices – Phonétique – Livre de l’élève / Dominique Abry, Marie-Laure Chalaron. Les 350 Exercices – Phonétique – Livre de l’élève.